

Tasviriy san'at

5



UO'K: 75:373.5.016(075.3)

BBK 85.14+74.262.6

T 25

Barno Yunusova

Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik /
Barno Yunusova, Noila Vaxabova, Ra'no Ismailova, Zulayxo Xashimova.
– Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. – 128 b.

Taqrizchilar:

Tursunali Kuziyev – O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi direktorining birinchi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zBA akademigi, professor;

Xusan Muratov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va dizayn kafedrasida dotsenti;

Baxtiyor Tursunov – Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 50-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali tasviriy san'at va chizmachilik fanlari o'qituvchisi;

Alfiya Salixova – Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 159-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fanlari o'qituvchisi.

Shartli belgilar



**Mustahkamlash
uchun savollar**



**Topshiriqni
bajaring**



**Uyga
vazifa**

SO'ZBOSHI

Aziz o'quvchi! Siz ushbu darslik orqali tasviriy san'at fanining tarixi va uning asoslari haqida tushunchaga ega bo'lasiz. Fanning yanada qiziqarli va zamonaviy turlari, janri, turli xil yo'nalishlari haqida bilib olasiz, amaliy mashg'ulot darslarida tasvir ishlashning turli xil usul hamda texnikalarini o'rganib borasiz.

Darslikdan siz, amaliy va badiiy bezak san'ati haqida bilimlarga ega bo'lish bilan birga turli xil shriftlar, grafika san'ati hamda kompozitsiyaga doir ma'lumotlarga ham ega bo'lasiz. Amaliy bezak san'atida naqqoshlik san'ati va shu san'at ustalari haqida bilib olasiz. Kompyuter grafikasi Sketchbook dasturida tasvir ishlash mavzulari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalaringiz shakllanadi.

Darslik badiiy estetik didingizni shakllantiradi, ijodiy tafakkuringizni oshiradi, kreativ fikrlash va innovatsion rejalar tuzishga o'rgatadi hamda turli kasb-hunar egallashingizga yordam beradi.

"Tasviriy san'at" darsligini o'zlashtirish va mustaqil ijod yo'lida muvaffaqiyatlar tilaymiz!



"MENING YURTIM" MAVZUSIDA BADIY SHRIFTLAR ASOSIDA KOMPOZITSIYA ISHLASH

Tasviriy san'at fanida grafikaning badiiy bezak turi alohida o'rinni egallaydi. Grafika turlarining asosiy elementi harflar – shriftlar hisoblanadi. Harflar badiiy, me'yoriy, yozma, bosma, soyali kabi turlari bilan grafik kompozitsiyalarda keng qo'llaniladi. Harflarning chiroyli va qiziqarli shriftlarda yozilishini eramizdan avvalgi va bizgacha yetib kelgan qadimiy kitoblarda ko'rishimiz mumkin.

Kitobni bezash va unga chiroyli yozish uslubi dunyoning barcha xalqlari madaniyatida o'ziga xos uslubda amalga oshirilgan.

Bugungi kunga kelib, kitob grafikasi asosida plakat, e'lon, afishalar, devoriy ko'rgazma va gazetalar, tabriknoma, taklifnomalar hamda grafikaning zamonaviy turlari bo'lgan tashrif qog'ozi, reklama qog'ozlar, flayerlarni ishlab chiqarish rivojlanib kelmoqda.

Shrift – nemischa so'z bo'lib, "schrift, schreiben" – "yozish" degan ma'noni bildiradi.

Badiiy shriftlarni kompozitsiya asosida turli ko'rinishda va turli usullarda yozish mumkin. Shriftlar og'ma, to'g'ri, soyali, hajmli, 3D va shu kabi turli ko'rinishda yozilgan bo'lishi mumkin.

A B C D E F G H I J K
L M N O P Q R S T U
V X Y Z O' G' Sh Ch ng '

A B D E F G H I	A B D E F G H I
J K L M N O P Q	J K L M N O P
R S T U V X Y Z	R S T U V X Y
O' G' Sh Ch ng '	O' G' Sh Ch ng '



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buzuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqq boshlagan • WWW.XALQ.SU • E-MAIL: info@xalq.su • 2023-yil 29-sentabr, № 201 (8544)

Sochanbo



YOSHLAR OVOZI

BIZ — KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#15 (16564)
2023-yil 29-mart
chorshanba

2023-yil 25-yanvardan chiqq boshlagan

YANGI

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O'ZBEKISTON

№ 228 (1018), 2023-yil 3-noyabr, juma



www.yil.uz



YIL.uz



YIL.uz



YIL.uz



YIL.uz

Matbuot va ommaviy axborot vositalarining barcha yo'nalishlarida badiiy shriftlarning turli xil ko'rinishlaridan foydalaniladi.


Hozirgi kunda butun dunyoda harflarga badiiy bezak berishning kalligrafiya, lettering usuli juda ko'p qo'llaniladi.

Lettering — inglizcha "letter" so'zidan olingan bo'lib, "harf", "belgi" degan ma'nolarni anglatadi. *Lettering*da harflar badiiy shriftlarga aylantirib yoziladi. Bunda harflarning bezagini istalgan ko'rinishda yaratish mumkin.



Ta'lim jarayonida badiiy bezak san'ati asosida taklifnoma, tashrif qog'ozi, tabriknoma, emblemalar kompozitsiyasi va devoriy gazeta, bolalar uchun turli badiiy asarlar, ertak kitoblarni yaratishda ham bezak elementi sifatida shriftlardan foydalaniladi. Demak, shriftlarning to'g'ri tanlanishi tabriknoma, taklifnoma va tashrif qog'ozining ko'rinishi qiziqarli va chiroyli chiqishiga yordam beradi.

O'quv mashg'ulotlarida shriftlar yozish uchun maxsus asbob – moslamalar bo'lishi shart emas, flomaster, rangli ruchka, rangli qalam va bo'yoqlardan foydalanib, kompozitsiya yaratish mumkin.



Harflarni 3D ko'rinishida yozish hajmli shriftlarning ko'rinishiga yanada qiziqarliroq tus beradi. Tasvirning badiiy bezagida matn mavzusi yaxlit ajratib beriladi.

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

5-sinf tasviriy san'at darsligini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

MUNDARIJA

I CHORAK

1-dars. "Mening yurtim" mavzusida badiiy shriftlar asosida kompozitsiya ishlash.....	4
2-dars. "Mening yurtim" mavzusida tashrif qog'ozi kompozitsiyasini ishlash.....	10
3-dars. Tasviriy san'atning turlari.....	16
4-dars. Tasviriy san'atning janrlari.....	22
5-dars. Inson gavdasini nisbatlar asosida chizish.....	28
6-dars. Inson gavdasi haykalchasini yasash	30
7-dars. Men sevgan qahramon.....	34
8-dars. Sharq miniatura san'ati.....	35
9-dars. 1-nazorat ishi.....	40

II CHORAK

10-dars. O'zbekiston amaliy bezak san'ati.....	42
11-dars. O'zbekiston amaliy bezak san'ati ustalari.....	48
12-dars. Kompozitsiya.....	54
13-dars. Grafika va uning turlari.....	57
14–15-darslar. Ranglangan qog'ozga qalam bilan naturmort chizish.....	62
16-dars. 2-nazorat ishi.....	66

III CHORAK

17-dars. Grizayl.....	68
18-dars. Tasvirlarda ranglar jilosi.....	72
19-dars. Qarama-qarshi ranglardan foydalanib, kompozitsiya ishlash.....	74
20-dars. Tasviriy san'atda qog'oz plastikasi.....	78
21-dars. Badiiy shrift.....	82
22-dars. Qo'lni uzmasdan chizish texnikasi	85
23-dars. Badiiy bezakli sovg'a qutichasini ishlash.....	86
24-dars. Animalistik janr	90
25-dars. Navro'z bayrami mavzusida kompozitsiya ishlash	91
26-dars. 3-nazorat ishi.....	94

IV CHORAK

27-dars. O'zbekiston rassomlari.....	96
28-dars. Naqsh namunasidan nusxa ko'chirish.....	102
29-dars. Sketchbook dasturi.....	106
30-dars. Sketchbook dasturi asosida tasvir chizish.....	110
31-dars. Sharqona me'morchilik san'ati.....	114
32-dars. Zamonaviy me'morchilik san'ati.....	116
33-dars. Badiiy bezak grafikasi.....	120
34-dars. 4-nazorat ishi.....	124